



The issue of variability in terms of public administration

Lobar GANIEVA¹

Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi

ARTICLE INFO

Article history:

Received January 2024

Received in revised form

10 January 2024

Accepted 25 February 2024

Available online

25 May 2024

Keywords:

term,
terminology,
terms of state
administration,
variation,
phonetic variation,
morphological variation,
lexical variation.

ABSTRACT

In the article, the theory of variant compatibility in linguistics is studied, and the origin of variant compatibility in terminology and the issue of their elimination is considered. Phonetic, morphological, and lexical variants of state administration terms were also analyzed and linguistically studied.

2181-3663/© 2024 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol2-iss2-pp258-262>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Davlat boshqaruvi terminlaridagi variantdoshlik masalasi

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

termin,
terminologiya,
davlat boshqaruvi
terminlari,
variantdoshlik,
fonetik variantdoshlik,
morfologik variantdoshlik,
leksik variantdoshlik.

Maqolada tilshunoslikdagi variantdoshlik nazariyasi o'rganilgan, terminologiyada variantdoshlikning kelib chiqishi va ularni bartaraf etish masalasi ko'rib chiqilgan. Shuningdek, davlat boshqaruvi terminlaridagi fonetik, morfologik va leksik variantdoshlar tahlilga tortilgan va lingvistik tahlil qilingan.

¹ Basic doctoral student, Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi.
E-mail: ganiyevalobar29@gmail.com

Вопрос вариативности в терминах государственного управления

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

термин,
терминология,
термины
государственного
управления,
вариация,
фонетическая вариация,
морфологическая
вариация,
лексическая вариация.

В статье рассматривается теория вариативности в лингвистике, а также изучаются происхождение и способы преодоления вариативности в терминологии. Авторы анализируют фонетические, морфологические и лексические варианты терминов, используемых в государственном управлении, применяя лингвистические методы для их исследования.

Terminologiya tilshunoslikning tor sohalaridan biri bo'lsa-da, o'ziga xos lingvistik hodisalarga boy. Jumladan variantdoshlik xossasi sohalarga oid terminlar o'rtasida ham amaliy ham nazariy qo'llanilayotganligiga guvoh bo'lamiz. Variantdoshlik terminshunoslikda ma'qul topilmasa-da, ammo bu lingvistik hodisani cheklab o'tolmaydi. Variantdoshlik XVII asrda tilshunoslikka olib kirilgan bo'lib, bu hodisa yuzasidan bugungi kunga qadar bir qancha tadqiqotlar amalga oshirilgan. Variantdoshlikning ilmiy-nazariy asoslari xususida V.V. Vinogradov, A.I. Smirnitkiy, O.S. Axmanova kabi olimlar fikr-mulohazalar bildirgan. Lisoniy variantdoshlikka xos belgi, xususiyatlarni tahlil va talqin qilish o'zbek tilshunosligida XX asrning ikkinchi yarmidan boshlangan. O'tgan asrning 6–70-yillarida O'. Usmanova va A. Boboyeva kabi tilshunos olimlar o'zbek tilidagi variantdosh so'zlarning turlari, ularning sinonimlardan farqli jihatlari, shuningdek, me'yorga keltirish masalasi xususida fikr, mulohazalarni bildirgan. O'. Usmanova variantdoshlikni izohlash uchun leksik dublet terminini qo'llaydi. Dublatlarni fonetik va morfologik shakllarga ajratadi. A. Boboyeva esa "... mazmun va mohiyati jihatidan aynan bir xil va bir biriga yaqin ma'nodagi nutqiy vositalarning ikki va undan ortiq shaklda ifodalanish variativlik" degan fikr bilan izohlaydi. Tilshunos R. Shukurov variant bu bir ma'noli so'zning ikki lisoniy shaklda mavjud bo'lishidir deya ta'riflaydi. Keltirilgan izohlar, fikr, mulohazalardan aytishimiz mumkinki, variantdoshlik, ayniqsa terminologiyada o'rganilishi dolzarb bo'lgan masaladir.

Tilshunos olima D. Xudoyberganova sohalarni anglatuvchi terminlarning o'zi variantlilik asosida ishlatilib kelinayotganligini, ayrim terminlarning rus tilida bir necha variantda qo'llanishi ularning o'zbek tilida ham shunday qo'llanishga sabab bo'layotganligini, ayrim tadqiqotlarda kalka usuli bilan termin o'zlashtirilganda o'zbek tilidagi so'zlardan foydalanish imkoniyati mavjud bo'lgan holda bunga e'tibor qilmaslik ko'zga tashlanayotganini izohlab, bu holatda bir to'xtamga kelish kerakligini ta'kidlaydi. Garchi bu fikrlar zamonaviy tilshunoslik terminlariga nisbatan aytilgan bo'lsa-da, barcha sohaga doir terminlar qo'llanilishida shu jarayonlarning guvohi bo'lmoqdamiz.

Tibbiyot terminologiyasi yuzasidan tadqiqot olib borgan tilshunos A. Saidnomanov terminologiyaga bag'ishlangan ishlarda ham variantdoshlikka jiddiy e'tibor qilinmagani, terminlarni tartibga solish masalasida faqat sinonimlik yoki dubletlik tahlil qilinganligini, bu hodisalarni alohida tadqiqotlar doirasida o'rganilishi va chegaralar ajratilishi kerakligini aytib o'tadi. Keltirilgan barcha asosli tafsilotlardan kelib chiqib, aytishimiz

mumkinki, terminologiyada variantdoshlik nomuqobil hisoblansa-da, bu lingvistik hodisani chetlab o'tolmaydi. Sohalarga doir terminlar o'rtasida variantdoshlikni tahlil va tadqiq qilish muhim leksik jarayon hisoblanadi. Jumladan, davlat boshqaruvi terminologiyasining hozirgi holatini tadqiq qilish, sohaga doir terminlar bilan bog'liq muammolarning lingvistik yechimini topish, taraqqiyot omillarini belgilash tilshunoslikning muhim masalalaridan biri sanaladi.

Tilshunoslikda variantdoshlikni tasniflash masalasida O.S. Axmanova uchga: morfologik, fonetik va so'zlashuvdagi guruhlariga, R.P. Rogojnikova fonetik va morfologik variantlarga guruhlaydi. A. Saidnomanov ham tibbiyot terminologiyasiga doir variant terminlarni ikkiga fonetik va morfologik variantdosh terminlarga ajratadi.

Keltirilgan fikrlar va qilingan tadqiqot natijalarini o'rganib, mulohaza qilgan holda davlat boshqaruvi terminlarini ham uch xil variantdosh terminlarga ajratib tahlil qilamiz.

Fonetik variantdosh davlat boshqaruvi terminlari. Bizga ma'lumki, fonetik variantdoshlik asosida shakllangan terminlar tarkibidagi tovushlarning farqliligi asosida qurilgan bo'ladi. Masalan, *fuqaro* termini mamlakatning doimiy aholisi, qaysidir davlatga huquqiy jihatdan tegishli bo'lgan shaxs tushunchasini ifodalab, yozma ko'rinishda uchramasa-da, bu termin og'zaki siyosiy nutqda *fuqaro* holatida ishlatiladi. *Arbitraj* termini nutqiy faoliyat jarayonida *arbitraj* shaklida ishlatilishining guvohi bo'lamiz. Bu terminlarning og'zaki va yozma nutqda ishlatilishi bir biridan talaffuzda qisman farq qilsa-da, bir tushunchani, ya'ni hakamlilik sudi, nizoli masalalarni hal qilish uchun maxsus tashkil qilingan va doimo faoliyat ko'rsatuvchi sud organi ma'nosini ifodalaydi.

Davlat boshqaruvi terminlaridagi morfologik variantdoshlik. O'zaro ma'nodosh bo'lgan qo'shimchalar asosida shakllanadi. Ya'ni ma'nosi bir- biriga o'xshash suffiks yoki prefiks terminelementlarning yangidan termin hosil qilishi natijasida yuzaga keladi. Bunday terminelementlar ko'p komponentli terminlarning aniqlovchi komponenti asosiga, sodda terminlarning esa terminning tushuncha anglatuvchi tayanch qismiga qo'shiladi. Masalan, *uyushgan jinoyatchilik* maxsus uyushgan guruhlar tomonidan amalga oshirilgan jinoiy harakat bo'lib, bu termin *uyushqoq jinoyatchilik* termini bilan -gan va -qoq qo'shimchalari asosida morfologik variantdoshlik hosil qilgan. *Vahobiylik* tuzilish tarkibiga ko'ra soda termin bo'lib, shaxs nomiga yasovchi qo'shimcha (-iy-lik) qo'shilishi natijasida hosil qilingan termin hisoblanadi. *Vahobiylik* ifodalaydigan tushunchasiga ko'ra diniy oqim, uning harakati siyosiy va terroristik tashkil qilingan bo'lib davlatga qarshi qaratilgan. *Vahobizm* termini vahobiylik bilan bir xil lingvistik vazifani bajaradi. Farqli xususiyati ularning shaklida, -izm va -iy-lik qo'shimchalari morfologik variantlilikni keltirib chiqargan. ...izm fransuzcha xalqaro terminelement, faol va ko'p ma'noli so'z yasovchi qo'shimcha quyidagicha tushuncha anglatadigan so'zlarni yasaydi: 1) turli fan sohalariidagi ta'limot, nazariya, yo'nalish va oqimlarning nomini yasaydi; 2) jamiyat qurilishining turli bosqichlari nomlarini hosil qiladi; 3) adabiyot, san'atdagi turli oqim va yo'nalishlarning nomlarini yasaydi; 4) turli dinlar va diniy oqimlar nomlarini hosil qiladi; 5) turli xil kasalliklar, zaharlanishlar nomlarini hosil qiladi; 6) Tilshunoslik terminlarini hosil qiladi; 7) sport turlari nomlarini hosil qiladi; 8) harakat, holat nomlarini hosil qiladi. Ko'rinib turibdiki, birgina qo'shimcha turli sohalarga doir turlicha tushuncha anglatuvchi terminlarni vujudga keltiradi. Shuningdek, -iy qo'shimchasiga to'xtaladigan bo'lsak, asli arabiy bo'lgan qo'shimcha bo'lib, asosan, o'zlashgan forscha, arabcha so'zlarga qo'shiladi. Shu o'rinda aytib o'tishimiz kerakki, morfologik variantdoshlikni vujudga keltiruvchi terminelementlar turli tillarga mansub morfologik birliklar bo'lishi mumkin.

Ariza va arznoma terminlari bir tushunchani, ya'ni muayyan muassasa yoki mansabdor shaxs nomiga yozilgan iltimos, taklif, shikoyat mazmunidagi rasmiy hujjat ma'nosini ifodalab faqatgina bu terminlarning yasashida, ya'ni yasovchi qo'shimchalarida farqqa ega. Ariza so'zining asosi arz bo'lib, -a yasovchi qo'shimchani qo'shilishi natijasida tovush orttirilishi, ya'ni fonetik tovush o'zgarishi yuz bergan. Arznoma termini ham [Arz+noma] shu asosda shakllangan bo'lib, ikkala termin morfologik belgilariga ko'ra bir-biridan farq qilsa-da, mazmunan bir tushunchani istihola qiladi.

Davlat boshqaruvi terminlaridagi leksik variantdoshlik. Leksik variantdoshlik, asosan, ko'p komponentli terminlar o'rtasida kuzatiladi. Qaysi til materiali, manbasi ekanligiga ko'ra etimologik va sohalararo leksik variantdosh terminlarga bo'linadi. Tilshunos, terminolog olim A.Madvaliyev variantdoshlikni dublet deb atab, etimologik dubletlarni o'zbekcha so'zlar dubletligi hamda o'zbekcha va baynalmilal so'zlar dubletligi shaklida tasniflaydi. Davlat boshqaruvida o'zbekcha va baynalmilal so'zlar variantdoshligi ko'p qismni tashkil qiladi. Masalan, *davlat suvereniteti* hamda *davlat mustaqilligi* terminlaridagi suverenitet va mustaqillik leksemalari variantdoshlik hosil qilgan. *Muqaddima* arabcha so'z bo'lib, old qism, kirish joyi ma'nolarini iste'foda etadi, gap va nutqda asosiy maqsadga ko'chishdan oldin aytilgan so'zlar ham shu termin ostida ishlatiladi. Davlat boshqaruviga oid siyosiy nutqda, shuningdek, konstitutsiyamizda ishlatiladigan asosiy termin bo'lib, *kirish, debocha* so'zlari bilan variantdoshlikni vujudga keltiradi. *Erkin iqtisodiy zona* ma'lum mintaqani jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish mamlakat va chet el kapitalini, istiqbolli texnologiya va boshqaruv tajribasini jalb etish maqsadida tuziladigan, aniq belgilangan ma'muriy chegaralari va alohida huquqiy tartiboti bo'lgan hudud deb lug'atda izoh beriladi. Davlat boshqaruvida bugungi kunda *erkin iqtisodiy zona* termini o'rnida *erkin iqtisodiy hudud* ham baravar ishlatilib, o'zbekcha va ruscha baynalmilal so'zlar variantdoshligini hosil qilmoqda.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, o'zbek terminologiyada variantdoshlikning kelib chiqishiga quyidagi omillar sabab sifatida ko'rsatiladi: 1. Rus tilidan tarjima qilinishi natijasida ko'plab terminlar o'zgarishsiz qabul qilinishi; 2. Arab tiliga asoslangan terminlardan ham yondosh foydalanish; 3. Boshqa tillar materiallarini kalkalash, o'zbek tilida uning muqobilini topishga urinish. 4. O'zbek tilining o'zida mavjud bo'lganlari bilan o'zlashma yoki xalqaro terminlarning yondosh qo'llanilishi. 5. Nomenklatura sistemalarining turlicha ishlatilishi. 6. Terminlarning ilmiy va turmushdagi ko'rinishlarining yondosh ishlatilishi. Bu sabablarni bartaraf etmasdan turib terminlardagi variantdoshlikka chek qo'ya olmaymiz. Bu omillarning shakllanishi til qonuniyatlari va uning takomillashuv davri bilan bog'liq. Shunday ekan variantdoshlik terminologiyada hali uzoq yillar hal qilinishi kerak bo'lgan masalaga aylanadi.

Terminologiyada variantdoshlik nuqsonli jihat hisoblansa-da, tilning xususiy xossalardan voz kecha olmaymiz. Buni bartaraf etish ko'plab ilmiy tadqiqotlarni talab qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. –М., 1966. –С. 71.
2. Бобоева А. Ҳозирги ўзбек адабий тилида вариантдорлик //“Ўзбек тили ва адабиёти”, 1979, №6.
3. Божно Л.И. Научно-техническая терминология как один из объектов изучения закономерностей развития языка //Филологические науки, 1971, - №5. – С. 103.

4. Мадвалиев А. Ўзбек терминологияси ва лексикографияси масалалари. – Т: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2017.
5. Мадвалиев А. Маҳкамов Н. Мираҳмедова З. Саидноманов А. Халқаро терминэлементларнинг изоҳли-иллюстратив луғати. – Тошкент: Донишманд зиёси, 2020.
6. Мадвалиев А.[ва бош.] Ижтимоий-сиёсий терминларнинг қисқача изоҳли луғати. – Т: 2020, Саҳҳоф.
7. Набиева М. Терминларнинг формал-грамматик хусусиятлари ҳақида//Ўзбек тили ва адабиёти. –Т. 2021.№5. –Б. 122.
8. Рогожникова Р.П. Варианты слов в русском языке. – М. 1966. –С. 65-75.
9. Саидноманов А. Соҳавий терминлар вариантдорлиги ва уларни минимумга келтириш масаласи //Ўзбек тили ва адабиёти, 2023. №3. –Б. 121.
10. Усмонова Ў. Дублетлар ҳақида баъзи мулоҳазалар// “Ўзбек тили ва адабиёти”, 1968, №1. –Б. 23-25;¹ O’sha manba. –Б. 58.
11. Xudoyberganova D. Zamonaviy o’zbek tilshunosligi terminlarining taraqqiyot omillari // O’zbek tiliva adabiyoti. 2023, №4. – В.14-15.
12. Шукуров Р. Сўзнинг морфологик вариантлари. – Тошкент. “Фан”, 1990, -Б. 6.
- 13 Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Т: Ўзбекистон миллий энциклопедияси. – Б. 660.